

MAHMUDOVA Odina Obiddin qizi
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik mutaxassisligi 2-kurs magistranti
Odinamahmudova2610@gmail.com

XATIB BAG'DODIYNING "AL-JOME'" ASARIDA HADIS TOLIBI ODOBINING YORITILISHI

ОСВЕЩЕНИЕ ЭТИКЕТА ИЗУЧАЮЩЕГО ХАДИСОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «АЛЬ-ДЖАМЕ» ХАТИБА БАГДАДИ

ILLUMINATION OF HADITH STUDYER ETIQUETTE IN KHATIB BAGHDADI'S WORK "AL-JAME"

Annotatsiya: *Xatib Bag'dodiyning "al-Jome'" asarida hadis o'rganishni niyat qilgan kishi oddiy insonlardan barcha ishlarda ajralib turishi kerak ekanligi haqida yoritilgan. Asarda ushbu ilm bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan kishilar amal qilishi kerak bo'lgan odob-axloq qoidalari sanab o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *"Al-Jome'", hadis, muhaddis, odob-axloq.*

Аннотация: *В книге «аль-Джаме» Хатиба аль-Багдади подчеркивает, что изучающий хадисов должен вести себя благочестиво и отличаться от обычных людей во всех своих поступках. В произведении подробно описаны правила этикета, которым должен следовать каждый, кто желает постигнуть эту науку.*

Ключевые слова: *«Аль-Джаме», хадис, мухаддис, этикет.*

Annotation: *In the book of Khatib al-Baghdadi's "al-Jame" it is described that a person intending to study hadiths must be different from ordinary people in all their actions. The book widely describes the rules of etiquette that should be followed by everyone who wants to study this science.*

Keywords: *"Al-Jame'", hadith, muhaddith, etiquette.*

KIRISH

Ilm ma'naviyatning muhim tarkibiy qismlaridan bo'lib insonni kamolotga yetaklaydi, unga hurmat va

e'tibor keltiradi. Shunday ekan, har qanday ilm bilan shug'ullangan kishi ushbu ishga kirishishidan oldin ma'lum odob-axloq qoidalariga amal qilishi kerak bo'ladi. Zero, hamma narsaning qoidasi, tartibi, ta'limi bor, tartib, odob qoidalarini to'g'ri tutgan kishi o'z maqsadiga erishadi, ustoz va olimlarning e'tiboriga sazovor bo'ladi.

ASOSIY QISM

Xatib Bag'dodiy "al-Jome'" asarida hadis talabida bo'lgan kishi eng avvalo, Payg'ambar (a.s.) sunnatiga imkon qadar amal qilishini, o'zi uchun sunnatni vazifa qilib olishi lozim ekanligini ta'kidlaydi. Islomning bu ta'limoti Qur'oni karimning "al-Ahzob" surasidagi: "... Sizlar uchun ... Allohning payg'ambarida go'zal namuna bordir" [1:420] degan oyatida ham aks etgan. Muhaddis olim Abu Usmon Zohid ham hadislarning inson axloqiga ijobiy ta'sirini ta'kidlab shunday deydi: "Kim sunnatni o'ziga so'z va fe'l bilan singdursa, hikmat bilan gapiradi. Kimki o'ziga hoy-u havasni singdursa bid'atni gapiradi. Chunki, Alloh taolo Payg'ambar (a.s.)ga ergashish haqida shunday degan "... Agar unga itoat etsangiz, hidoyat topursiz" [1:357]. Mazkur axloq qoidalarini o'ziga o'zlashtirgan kishi jamiyatda munosib o'rni ega bo'lishini ulamolar ta'kidlaydilar.

Muhaddis Xatib Bag'dodiy har bir ishga kirishishdan oldin niyat muhimligini ta'kidlab, "al-Jome'" asarning birinchi bobini ham "Hadis talab qilishda niyat" deb nomlaydi. Ushbu bobning tahlilidan bilish mumkinki, hadis ilmi bilan shug'ullanish sharaflig'i ish va bunga kirishishdan oldin to'g'ri niyat qilish muhim amallardan hisoblanadi. Mazkur fikrning isboti sifatida Hofiz Xatib Bag'dodiy quyidagi hadisni keltiradi: "Rasululloh (s.a.v.) aytdilar: "Kimki oxiratiga manfaat beradigan ilm o'rgansa, u bilan dunyodan biror narsa olishni niyat qilsa, jannatning hidini ham hidlamaydi" [2:125]. Mashhur sharq olimlari ham o'z asarlarida bu mavzuga alohida to'xtalib o'tganlar. Xususan, Azizuddin Nasafiy o'zining "Komil inson" to'g'risidagi risolasida komil insonga ta'rif berayotib, shunday degan: "Niyati, so'zi va amali uyg'un bo'lgan va hamisha ma'rifatga intilgan inson komil insondir" [6-75]. Ushbu manbalarga asoslanib aytish mumkinki, kishining amalida uning niyati, so'zi va xatti-harakatlari uyg'un bo'lishi talab etiladi.

Xatib Bag'dodiy hadis ilmining sharaflig'i barobarida mas'uliyati ham yuksak ekanligiga roviylarning fikrlaridan dalillar keltiradi. Muhaddis Amr ibn Shuayb bobosidan rivoyat qilib aytadi: "Mening nazdimda hadis ilmi bilan shug'ullanishdanda qo'rqinchliroq narsa yo'q

va shu barobarida Alloh bergan ne'matlari ichida uni (hadis ilmini) ixtiyor qilgan odam uchun unga teng keladigani ham yo'q" [2-145]. Xatib Bag'dodiyning hadis ilmi sharafiga va mas'uliyati haqidagi fikri ilmiy nuqtai nazardan bu ilmning qadr-qimmatini va javobgarligining uzviy bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Binobarin, Xatib Bag'dodiy "al-Jome'" asarida riyo, maqtanchoqlik kabi mavzularga alohida to'xtalib o'tgan. Chunki ushbu xislatlar insonning ma'naviy kamolotiga jiddiy zarar yetkazishini, hadis ilmi bilan shug'ullanishda bu kabi illatlardan yiroq turish tolibi ilm uchun lozim ekanini ta'kidlagan. Xususan, sahoba Huzayfa ibn Yamon (r.a.) dan rivoyat qilinishicha, Rasululloh (s.a.v.) aytdilar: "Kim ilmni olimlarga maqtanish uchun yoki johillar bilan musobaqa qilish uchun va insonlar uni o'zlarining yuzi deb qabul qilishlari uchun talab qilsa unga jahannam bordir" [2-150].

"Al-Jome'" asarida Bag'dodiy hadisi sharifni o'rganishdan maqsad insonlar maqtovi bo'lishidan qaytari, quyidagi rivoyatlarni keltiradi: muhaddis Bahz ibn Hakim bobosidan rivoyat qiladi: "Kim odamlar u haqida gapirishlarini xohlab hadis o'rgansa jannatning hidini tuymaydi, va holanki uning hidi besh yuz yillik masofadan his qilinadi" [2-178].

Ko'plab tarixiy manbalarda hadis ilmi bilan Yaratganning xos bandalari shug'ullanishi qayd etilgan. Xususan, "al-Jome'" asarida Bag'dodiy quyidagi rivoyatni keltiradi: Imom Abu Osim aytadi: "Kimki hadis talab qilsa u dunyo ishlarining eng oliysini talab qilibdi. Unga kishilarning eng yaxshisi bo'lish lozim bo'ladi" [2-119].

Shuning barobarida, Xatib Bag'dodiy ilmga ta'rif bera turib, Ali (r.a.)ning ushbu so'zlarini keltirib o'tadi: "Hoy, ilm tolibi! Ilmning fazilatlarini ko'pdir. Ilmning boshi tavoze (kamtarlik), ko'zi hasaddan xoli bo'lish, qulog'i fahm, tili rost so'zlash, hifzi o'rganish, qalbi go'zal niyat, aqli esa zarur ish va narsalarni bilish, qo'li mehribonlik, oyoqlari olimlarni ziyorat qilish, hikmati taqvo, manzili najot, rahbari ofiyat, ulovi vafo, quroli yumshoq so'z, jangchilari olimlar, davlati odob, xazinasi gunohlardan uzoq bo'lish, do'sti yaxshi insonlarning suhbatidir" [2-132].

Barcha islom manbalari kishi olgan ilmiga amal qilgandagina o'z maqsadiga yetishina hamda ilmni egallash insonning aqliy va ma'naviy jihatdan yuksalishi uchun muhimligini, lekin bu bilimlar hayotga tatbiq etilmasa, ulardan haqiqiy foyda olib bo'lmashligini ta'kidlaydi. Ilm qalbga o'rnashsa, a'zolar uni amal bilan tasdiqlashini Alisher Navoiy o'z asarida shunday baytni keltiradi: "Ilm o'qub qilmagan amal maqbul,

dona sochib ko'tarmadi mahsul" [4-528]. Xatib Bag'dodiy esa bu borada quyidagicha fikr bildirgan: "Hoy, ilm tolibi! Men sizga ilm izlar ekansiz niyatni xolis qilish, bilimingiz taqozosi bilan amal qilishni vasiyat qilaman. Chunki ilm daraxt bo'lsa, amal uning mevasidir. Bilimga amal qilmagan odam olim hisoblanmaydi... Agar amal bilimga ko'ra nuqsonli bo'lsa, bu bilim insonga yuk bo'ladi, xorlik keltiradi va bo'yniga solingan zanjirga aylanadi. Amal qilish zarurati bo'lmasa edi, ilm izlanmas edi. Men uchun haqiqatni bilmasdan tark qilishim, uni behojatlikdan tark qilishimdan ko'ra sevimliroqdir" [2-89].

Xatib Bag'dodiy hadis tolibi halol kasb qilgan bo'lishi, muhtojlarga yordam berishi kerak ekanligini ta'kidlab, muhaddis Sufyon Savriy ilm talabida kelgan kishilardan kasb kori borligi haqida so'rganini va hunari bor kishilarga ilm berganini, hunari bo'lmaganlarga esa kasb qilib keyin kelishni aytganini misol qiladi. Chunki bu narsa hadis ilmidan moddiy manfaat ko'zlashdan qaytaradi.

Ta'kidlash joizki, hadis talab qilgan kishining ustozini oldida amal qilishi kerak bo'lgan bir nechta majburiyatlari bor. Masalan, "al-Jome'" asarining "Muhaddisdan savol so'rash odobi" bobida muhaddis Maymun ibn Mehrondan rivoyat qilinadi: "Insonlarga mehrli bo'lish aqlning yarmi, go'zal savol berish fiqhning yarmi". Imom Ibn Ajlon bir kuni Zayd ibn Aslamning oldiga keldi va bir narsa haqida so'radi va uni chalkashtirib tashladi. Shunda Zayd ibn Aslam dedi: "Bor, savol berishni o'rganib kel". Ibn Muborakdan bir kishi savol so'radi va u yurayotgan edi. Ibn Muborak: "Yurayotganda savol so'rash ilmning viqoridan emas", dedi [2-367-368]. Bundan ma'lum bo'ladi, o'rinli joyda savol berish, savolni puxta o'ylab so'ng so'rash va go'zal savol berish muhim qoidalardan hisoblanadi.

"Al-Jome'" asarining "Hadis eshitish odobi" bobida esa hadis tolibi muhaddisning so'zini diqqat bilan tinglashi, eshitganiga amal qilishi, o'rganganidan ta'lim berishi kerakligi haqida bir qancha rivoyatlar kelgan. Muhaddis Zahhokdan rivoyat qilinadi: "Ilm bobining avvali jim turishlik, uni eshitishlik, unga amal qilishlik, uni yoyish va ta'lim berishdir". Shuningdek, sahoba Anas ibn Molik (r.a.)dan rivoyat qilinadi: "Payg'ambar (a.s.) dedilar: Bir mo'minning boshqa bir mo'min gapirganda sukut saqlashi uning muruvatidir" [2-243-244]. Haqiqatdan ham, qadimdan odob bilan sukut saqlash sharq qadriyatlarining ajralmas qismlaridan biri sanalgan.

Ko'plab hadis ilmiga doir manbalarda muhaddisning huzurida shovqin ko'tarish yoki hadisni yuqori ovoz bilan aytishdan qaytarilgan. Xususan, "al-Jome'"

asarining “Hadis eshitish odobi” bobida quyidagilar keltiriladi: muhaddis Hammud ibn Zayd rivoyat qiladi: Ayyubning huzurida edik, shovqin eshitildi va dedi: “Nima bu shovqin? Sizlarga hadisni yuqori ovoz bilan aytish Payg‘ambar (a.s.)ga ovozni ko‘tarish bilan barobar ekanligi xabari kelmadimi?”. Yoki imom Ibn Harb aytadi: “Hammud ibn Zayd Payg‘ambar (a.s.) dan hadis aytayotgan vaqtda kimdir ovozi ko‘tarsa unga hadis aytishdan to‘xtar edi” [2-315-316].

“Al-Jome” asarida muhaddislarning quyidagi fikri keltiriladi: “Kishi boshqa bir kishi hadis aytayotgan vaqtda unga sherik bo‘lmasligi kerak, hatto u undan yaxshiroq bilsa ham. Bu hadis eshitish odoblaridandir” [2-304]. Yuqorida aytib o‘tilganidek ilmdagi kamtarlik shu kabi o‘rinlarda namoyon bo‘ladi. Ibrohim ibn Adham qilingan rivoyatda talabani ustoziga qilgan hurmatsizligi uning barcha yaxshiligini zoye ketishiga ham olib kelishi ma’lum bo‘ladi. Ushbu rivoyatda shunday deyiladi: “Agar biz bir kishini masjidida ustoz bilan bir vaqtda gapirayotganini ko‘rsak, uning barcha yaxshiligidan umidimizni uzar edik” [2-305].

Qolaversa, “al-Jome” asarida hadis ilmi bilan shug‘ullangan kishining o‘zini tutishiga doir ham ba’zi tavsiyalar bor. Masalan, yurganda sokin yurishi, tavoze’ bilan so‘zlashi, hadis majlislarida xuddi namozda jim o‘tirilgani kabi jim o‘tirish, hadis eshitganida esa Qur‘on o‘qilganida jim turilgandek jim eshitish kabi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, Xatib Bag‘dodiyning “al-Jome” asarida asosan ustoz-shogirdga tegishli odoblar, ta’lim berish va olish uslublari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu asar o‘z yo‘nalishida yozilgan asarlar orasida mukammaligi, isnod zanjirlarining to‘liq keltirilganligi va keng qamrovli ekanligi bilan ajralib turadi. “Al-Jome” asari nafaqat hadisshunoslik sohasida balki ta’lim beruvchi va oluvchi bo‘lgan har qanday soha uchun qimmatli hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan hadis olimlarining fikrlaridan anglashiladiki, aslida ilm kishisining odob-axloqi faqat ilm olish doirasida chegaralanib qolmasdan, balki butun ongli hayoti va faoliyati davomida amal qilishi lozim bo‘lgan insoniy fazilatlarining o‘zagi bo‘lishi kerak.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi Abdulaziz Mansur. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2018.
2. Xatib Bag‘dodiy. Al-Jome’ li-axloq ar-roviiy va adab as-some’. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1.
3. Abdurahmon Romahurmuziy. Al-Fosil bayna-r-roviiy va-l-vo’iy. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 2017.
4. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2006.
5. Azizuddin Nasafiy. Komil inson. – Toshkent: Cho‘lpon, 2012.